

**TIBBIYOTDA YANGI LOYIHALARNI YARATISH ZARURIYATI:
ZAMONAVIY EHTIYOJLAR VA TRANSFORMATSION OMILLAR**

Aliyev Xumoyun Umar o'g'li

Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti

Magistratura bosqichi "Loyiha boshqaruvi" guruhi 1 kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiyot sohasida yangi loyihalarni yaratish zaruriyati ijtimoiy, texnologik va boshqaruv omillari nuqtai nazaridan yoritilgan. Muallif global tendensiyalar, demografik siljishlar, kasalliklar xarakteridagi o'zgarishlar, tibbiy xizmatlarga bo'lgan talabning ortishi, pandemiya tajribasi va raqamli texnologiyalar asosida sog'liqni saqlash tizimining transformatsiyalanuvchi ehtiyojlariga urg'u beradi. Shu bilan birga, yangi loyihalarning strategik va amaliy ahamiyati, ularning jamiyat salomatligi va barqarorligiga ta'siri keng tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tibbiyot loyihalari, sog'liqni saqlash, innovatsiya, raqamlashtirish, pandemiya, loyiha zarurati, ijtimoiy sog'lomlik, menejment.

KIRISH

Sog'liqni saqlash tizimi insoniyat taraqqiyotining eng muhim ustunlaridan biri bo'lib, u nafaqat individual salomatlikni, balki butun jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini belgilovchi asosiy mezonlardan sanaladi. Bugungi global tendensiyalar, epidemiologik xavf-xatarlar, ekologik muammolar, demografik siljishlar, sog'lom turmush tarzi bilan bog'liq xavotirlar tibbiyot sohasida yangi yondashuvlarni, zamonaviy texnologiyalarni va eng asosiysi — yangi loyihalarni yaratishni shart-sharoit emas, balki zarurat darajasiga olib chiqmoqda.

ASOSIY QISM

Avvalo, zamonaviy tibbiy tizimdagi yangi loyihalarga ehtiyojning ortib borishi bir necha asosiy omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, kasalliklar tabiatining o'zgarishi, ya'ni surunkali, genetik va hayot tarzi bilan bog'liq kasalliklarning

ko'payishi mavjud infratuzilma va xizmatlar bilan cheklangan sharoitda samarali qarshi kurashish imkonini bermaydi [1]. Masalan, 2-tip diabet, yurak-qon tomir kasalliklari, onkologik holatlar bo'yicha profilaktika va erta tashxis qo'yish tizimini tashkil etish uchun maxsus raqamli monitoring loyihalari talab etiladi.

Ikkinchidan, aholi sonining keskin ortib borishi sog'liqni saqlash xizmatlariga bo'lgan talabni oshirmoqda. O'zbekiston misolida, so'nggi o'n yillikda yillik tug'ilishlar sonining barqaror o'sib borayotgani shifoxona, poliklinika, vaksina markazlari, mobil tibbiy xizmatlar tarmog'ini kengaytirish zaruratini yuzaga keltirdi. Yangi loyihalarsiz bu talabga sifatli javob qaytarish deyarli imkonsiz.

Uchinchidan, tibbiyotda innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim omil sifatida yangi loyihalar asosini belgilaydi. Masalan, sun'iy intellekt asosida tashxis qo'yish tizimlari, biotexnologik dorilar ishlab chiqarish, masofaviy telemeditsina platformalari — bularning barchasi davlat tomonidan alohida yo'nalish sifatida boshqariladigan loyiha asosida rivojlantirilmoqda [2].

To'rtinchidan, tibbiyot sohasining raqamlashtirilishi yangi turdagi IT-loyihalarning zaruriyatini yuzaga chiqarmoqda. Sog'liqni saqlash elektron tizimlari, raqamli tarixlar, mobil ilovalar orqali muolajalarni nazorat qilish, onlayn qabul tizimlari — bularning barchasi aholini qulay va shaffof xizmatlar bilan ta'minlash imkonini beradi. Aynan shu sabab, tibbiyot IT-mutaxassislar bilan hamkorlikda yangi turdagi tarmoq loyihalarini ishlab chiqishni boshlamoqda.

Beshinchidan, pandemiyalar tajribasi (xususan, COVID-19) sog'liqni saqlash tizimida muvozanatni saqlash uchun zaxira resurslar, karantin inshootlari, bioxavfsizlik laboratoriyalari, tezkor tahlil tizimlarini yaratish bo'yicha istiqbolli loyihalar zarurligini isbotladi. Kelajakdagi favqulodda holatlarga tayyor bo'lish uchun, bugundan boshlab loyihalashtirilgan sog'liqni saqlash infratuzilmasi yaratish talab etiladi.

Yana bir muhim jihat — hududlar bo'yicha sog'liqni saqlashdagi tengsizlikni kamaytirish. Ayni paytda ba'zi chekka hududlarda doimiy shifokorlar yo'qligi, tibbiy texnika eskirganligi, xizmatlar sifati pastligi kabi muammolar mavjud. Bu muammolarni hal etish uchun lokal loyihalar ishlab chiqilishi zarur: har

bir tuman yoki viloyatning ehtiyojiga qarab tibbiy xizmatni modernizatsiya qiluvchi alohida loyiha yaratish zaruratga aylandi [3].

Shu jihatdan qaraganda, sog'liqni saqlash sohasida yangi loyihalar — bu nafaqat xizmat sifatini oshirish, balki ijtimoiy ishonch, milliy xavfsizlik va jamiyat barqarorligini ta'minlash vositasidir. Har bir yangi loyiha zamirida sog'lom inson, salohiyatli fuqaro va faol jamiyat yotadi.

Shu nuqtai nazardan olganda, sog'liqni saqlash tizimida har bir yangi loyiha nafaqat mavjud muammolarning yechimini izlash vositasi, balki oldindan xavf omillarini bartaraf etishga qaratilgan profilaktik mexanizmdir. Ayniqsa, global sog'liqni saqlash siyosati bugun faqat kasalliklarga qarshi kurashishdan iborat bo'lib qolmay, balki inson salomatligini saqlab qolish, sog'lom avlodni shakllantirish va tibbiy madaniyatni ommalashtirish yo'nalishlarida rivojlanmoqda.

Zamonaviy tibbiyot loyihalari shunchaki texnik infratuzilmani yangilash bilan emas, balki aholining hayot sifatini oshirish, tibbiy xizmatlardan teng va adolatli foydalanish imkonini yaratish, sog'liqni saqlash tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash bilan belgilanadi. Shu bois har bir loyiha — bu ijtimoiy va axloqiy mas'uliyatni zaminida mujassam etgan tizimli harakatdir [4].

Yangi loyihalarni yaratishda muhim jihatlardan yana biri — ularning barqarorlik va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi lozim. Har bir loyiha o'zidan keyingi bosqichlar uchun mustahkam asos bo'lishi, mahalliy va xalqaro tajribalarni uyg'unlashtirgan, innovatsion va insoniy yondashuvlarga tayangan bo'lishi kerak

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, tibbiyotda yangi loyihalarni yaratish hozirgi zamon ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda davlat siyosatining ajralmas bo'lagi bo'lib bormoqda. Bunday loyihalar — bu faqat inshoot yoki uskunalar emas, balki inson salomatligi va yashash huquqini kafolatlovchi hayotiy zaruratdir. Ularni samarali ishlab chiqish va boshqarish esa — zamonaviy bilim, texnologik yechim va ijtimoiy mas'uliyatni birlashtirgan kompleks yondashuvni talab qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tўraev Ш.М. Соғлиқни сақлаш тизимида лойиҳалаш ва менежмент. – Тошкент: Iqtisod–Moliya, 2021. – 184 б.
2. Karimova M.T. Tibbiyotda raqamli transformatsiya: muammolar va imkoniyatlar. // Tibbiy menejment jurnali. – 2023. – №2. – Б. 35–41.
3. World Health Organization. Global strategy on digital health 2020–2025. – Geneva: WHO Press, 2021. – 87 p.
4. Nasriddinov U.K. Pandemiya sharoitida sog‘liqni saqlash tizimida loyihaviy yondashuvlar. // “Ijtimoiy sohalarda innovatsiyalar” to‘plami. – T.: 2022. – Б. 52–60.